

IRONIYANING ADABIY-ESTETIK HODISA SIFATIDAGI TALQINLARI

Bekchanova Nazokat Ibadullayevna

Urganch innovatsion universiteti

“O‘zbek va xorijiy filologiya”

kafedrası o‘qituvchisi

nazokatbekchanova@mail.com

ANNOTATSIYA. Mazkur tadqiqotda ironiya adabiy-estetik hodisa sifatida tahlil qilinib, uning tarixiy-falsafiy va badiiy-nazariy talqinlari yoritiladi. Ironiyaning dastlabki ritorik trop sifatidagi shakllanishidan tortib, keyinchalik badiiy tafakkurda dunyoqarashiy pozitsiya, estetik munosabat hamda poetik hodisaga aylanish jarayoni izchil ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda ironiya nafaqat kulgi yoki tanqid vositasi, balki muallifning voqelikka masofali munosabatini, badiiy matndagi zohiriy va botiniy ma’no qatlamlari o‘rtasidagi murakkab munosabatni ifodalovchi estetik mexanizm sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: ironiya, kinoya, istehzo, adabiy-estetik hodisa, badiiy tafakkur, poetik masofa, roviy strategiyasi.

АННОТАЦИЯ. В настоящем исследовании ирония анализируется как литературно-эстетическое явление, раскрываются её историко-философские и художественно-теоретические интерпретации. Последовательно рассматривается процесс становления иронии от её первоначального формирования как риторического тропа до последующего превращения в художественном мышлении в мировоззренческую позицию, эстетическое отношение и поэтическое явление. В исследовании ирония трактуется не только как средство смеха или критики, но и как эстетический механизм, выражающий дистанцированное отношение автора к действительности, а также сложные взаимоотношения между внешним и внутренним смысловыми слоями художественного текста.

Ключевые слова: ирония, иносказание, насмешка, литературно-эстетическое явление, художественное мышление, поэтическая дистанция, стратегия повествователя.

ANNOTATION. This study analyzes irony as a literary and aesthetic phenomenon and highlights its historical-philosophical as well as artistic-theoretical interpretations.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-3, ISSUE-01**

The research consistently examines the development of irony from its initial formation as a rhetorical trope to its subsequent transformation in artistic thinking into a worldview position, an aesthetic attitude, and a poetic phenomenon. The study interprets irony not only as a means of humor or criticism, but also as an aesthetic mechanism that conveys the author's distanced attitude toward reality and expresses the complex relationship between the explicit and implicit layers of meaning in a literary text.

Keywords: irony, insinuation, sarcasm, literary-aesthetic phenomenon, artistic thinking, poetic distance, narrator strategy.

Ma'lumki, ironiya fanda, bir tomondan, til birliklari tizimida trop sifatida, ikkinchi tomondan esa madaniy ongda shakllangan alohida semantik vaziyat sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, ironiya borliqni idrok etish va baholashning falsafiy usuli sifatida Sokratona o'zini past tutish (soxta soddalik), romantik subyektivlik, ekzistensial shubha, postmodernistik masofa kabi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi jihatidan ham yoritiladi. Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan esa ironiya badiiylikning muhim modusi, ya'ni asar estetik tuzilishining ichki harakatlantiruvchi omillaridan biri sifatida talqin etiladi. Shuningdek, ironiyaning zamonaviy adabiy jarayondagi psixologik, kompozitsion va semantik funksiyalari ochib berilib, uning badiiy asar mazmunini chuqurlashtirishdagi roli asoslanadi. Ironiya kinoya termini bilan tenglashtirilgan holatda qo'llansa-da, "Estetikada badiiy asarni qabul qilish (badiiy retsepsiya) muammolarini o'rganish chuqurlashib brogan sarikinoyaning ham diapazoni kengayib, talqinlar turlichaligi ham ortib boradi"¹.

Biz ironiyaning tarixiy rivojlanish yo'liga nazar solsak, uni jahon adabiyoti tarixida muhim o'rin tutgan adiblar asarlarida uning dastlabki prototipik shakli bo'lgan antifrazis ya'ni bir ma'noni aytib, unga zid ma'noni nazarda tutish orqali tanqidiy munosabat bildirish usulidan tortib, matnning ichki ma'noviy qatlamlarida yashirin ma'no hosil qiluvchi metalogik figura darajasigacha bo'lgan evolyutsiyasi ochib berish lozim bo'ladi. Bu jarayonda ironiya endilikda faqat nutqiy kontekstual badiiy bezak emas, balki muallif pozitsiyasini bilvosita ifodalovchi, badiiy matnning ichki ma'no mexanizmini tashkil etuvchi estetik vosita sifatida namoyon bo'lishi kuzatamiz. Antik davrda shakllangan Sokrat ironiyasi bilimsizlikni da'vo qilish orqali haqiqatga yetish yo'li – ironiyaning falsafiy ildizlarini belgilab bergan bo'lsa, Mark Fabiy Kvintilian

¹ Қуронов Д. Мамажонов З. Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Тошкент академнашр. 2013. – Б. 130.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY JURNALI
VOLUME-3, ISSUE-01**

ta'limotida u ritorik san'atning muhim unsuri sifatida nazariy asoslangan. Bu davrda ironiya nafaqat nutqiy vosita, balki dunyoqarashiy pozitsiya sifatida ham qaror topgan.

O'rta asrlar estetik tafakkurida esa ironiyaga nisbatan ehtiyotkor, hatto inkoriy munosabat ustuvor bo'lib, diniy-dogmatik qarashlar doirasida uning zarurati va estetik qiymati tan olinmagan. Bunday yondashuv ironiyaning badiiy tafakkurdan siqib chiqarilishiga olib kelgan. Ironiyaning qayta jonlanishi Uyg'onish davriga to'g'ri kelib, u kulgi madaniyati, xalqona satira va karnaval estetikasi bag'rida yangi mazmun bilan boyidi. Ma'rifatparvarlik davrida esa ironiya sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilib, oddiy trop doirasidan chiqib, dunyoqarashiy-estetik pozitsiya darajasiga yetdi. Bu davr adabiyotida ironiya ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlikni fosh etish, siyosiy va diniy mutaassiblikni tanqid qilish, shuningdek, inson aqlining mutlaq haqiqatga da'vo qilishini cheklash vositasi sifatida faol qo'llanildi. Shu tariqa ironiya ma'rifatparvar adiblar ijodida tanqidiy tafakkur, intellektual masofa va estetik muvozanatni ta'minlovchi muhim badiiy omilga aylandi.

Ironiyaning zamonaviy talqini A. P. Chudakov, V. I. Tyupa va T. A. Kasatkina asarlarida yoritilgan. Jumladan, A. P. Chudakov Chexov nasri va dramaturgiyasida ironiyaning namoyon bo'lish xususiyatlarini farqlagan holda, **ichki (yashirin) ironiyani**, ya'ni umumiy kontekst doirasida amalga oshadigan ironiyani hamda **ochiq (oshkora) ironiyani** — turli badiiy vositalar, xususan, ironik detallar orqali ifodalanadigan ironiyani ajratib ko'rsatadi².

V. I. Tyupa ironiyani badiiylik modusi sifatida uning barcha rang-barang ko'rinishlarida (tragik ironiya, romantik ironiya, sarkastik ironiya) talqin qilar ekan, unga xos muhim xususiyatlar sifatida **patetikaga qarama-qarshilik** hamda **noavtoritarlikni** alohida ta'kidlaydi³.

O'z navbatida, T. A. Kasatkina ironiyani faqat yumor yoki satiraning bir ko'rinishiga keltirib qoldirmasdan, uning **o'ziga xos faoliyat maydoni** mavjudligini ta'kidlaydi. Bu maydon funksional jihatdan kulgiga asoslangan boshqa emotsional-qadriyatli yo'nalishlarning faoliyat doirasi bilan mos kelmaydi⁴. Kasatkina ta'kidlashicha, ironiya bevosita voqelikning o'ziga emas, balki uni ma'lum bir ko'pincha noto'g'ri deb qaraladigan emotsional-qadriyatli yo'nalishlar tizimida

² Чудаков А.П. Слово – вещь – мир: От Пушкина до Толстого: очерки поэтики русских классиков. – М.: Современный писатель, 1992.

³ Тюпа В.И. Художественность литературного произведения. Вопросы типологии. – Красноярск: Изд-во Красноярского университета, 1987. – С. 142-143.

⁴ Касаткина Т.А. Характерология Достоевского. – М.: Наследие, 1996. – 276 с.

anglash va talqin qilish jarayoniga qaratilgan bo‘ladi. Bunday holatda **total ironiya** voqelikni o‘zlashtirish va idrok etishning muhim vositasiga aylanadi.

O‘zbek adabiyoti tarixida ironiya termin sifatida aynan qo‘llanilmagan bo‘lsa-da, ko‘proq kinoya, piching, istehzo, ayrim hollarda zaharxanda/sarkazm atamaları bilan ishlatilib, uzluksiz rivojlanib kelgan badiiy-estetik hodisa sanaladi. Uni davrlar kesimida shunday tizimlashtirish mumkin:

I. Xalq og‘zaki ijodi va kulgi madaniyatida

O‘zbek folklorida ironiyaning poetik mohiyati piching, kesatiq, qochirim, mazax, latifa kabi shakllarda yashaydi. Bu bosqichda ironiya turli ijtimoiy munosabatlarni, hayotiy vaziyatlarni “kulgi orqali tartibga solish”, kishilardagi manmanlik, riyo, nodonlikni fosh etish, “yumshoq tanqid” yo‘li bilan axloqiy me‘yorlarni mustahkamlash kabi muhim estetik vazifalarni bajaragan

II. Mumtoz adabiyotda (klassik davr)

Mumtoz adabiyotimizda ironiya ko‘proq istehzo va kinoya ko‘rinishida, ba‘zan esa ta’na, mublag‘a bilan qo‘shaloq keladi. Bu yerda u badiiy nutqning “ikki qatlamli” ma’no qurilishini yaratadi (zohiriy ma’no va botiniy ma’no), shuningdek, insonlar tabiatidagi riyo, soxta taqvo, jaholatga nisbatan tanqidiy masofa hosil qiladi, Navoiy (“Shayx” radifli g‘azali), Maxmur (“Hapalak”), Muqumiy (“Sayohatnoma”) kabi ijodkorlar ijodida satira bilan yonma-yon turib, lekin ko‘pincha undan “muloyimroq”, estetik nozikroq ohangda aks etganini kuzatamiz.

III. Jadid adabiyoti va uyg‘onish davri publitsistikasi.

Jadidlar ijodida ironiya, asosan, jamiyatni, ilmsiz millatni uyg‘otish maqsadiga xizmat qilgan: ijtimoiy-siyosiy tanqid, “nodonlikni ko‘rsatuvchi kulgi”, eski, zamondan ortda qolgan qarashlarni fosh etish. Bu bosqichda kinoya ma’rifiy g‘oya tashuvchisiga aylanadi, publitsistika, drama va hajviy janrlar bilan kuchli bog‘lanadi, xalqona pichingdan adabiy-analitik kinoyaga ko‘tariladi.

IV. XX asr o‘zbek nasrida: hajv, satira va “ma’naviy tanqid”.

Bu davrda ironiya ko‘pincha hajv va satiraning ichki mexanizmi sifatida ishlaydi. Masalan, Abdulla Qodiriy hajviyotida ironiya “badiiy vosita” sifatida qo‘llanib, nutqni ta’sirchan qilishi va qo‘pollikdan asrashni ta’kidlanadi. Ya’ni, ironiya bu yerda illatni “ochiq so‘kish” bilan emas, ma’no o‘yini orqali fosh etish, obraz va roviy pozitsiyasi orqali tanqidiy baho berish, kulgi ostiga jiddiy ijtimoiy ma’no joylash kabi vazifalarni bajaradi.

V. Mustaqillik davri va hozirgi o'zbek nasrida: kinoyaning poetik sistemi.

Hozirgi adabiy jarayonda ironiya ko'proq **kinoya** termini bilan tahlil qilinadi (ayniqsa nasrda). Mashhura Sheraliyeva kinoyaning mohiyatini "obyektga chetdan turib nazar tashlash" va "tashqaridan baho berish vositasi" sifatida izohlaydi⁵. Bu ta'rif hozirgi nasr poetikasini tushuntirishda juda qulay: kinoya – muallifning bevosita hukmi emas, balki masofa (distansiya) orqali berilgan bahodir.

Sheraliyeva tahlilida kinoyaning subyekti ham turlicha bo'lishi mumkin: ba'zan roviy voqelik ustidan kinoya qiladi, ba'zan qahramon o'ziga-o'zi kinoya qiladi, ba'zan esa qahramon atrofdagilarni kinoyaga oladi⁶. Bu esa hozirgi nasrda ironiyaning psixologik va kompozitsion funksiyalari kuchayganini ko'rsatadi. Marhabo Qo'chqorova tilga olinadigan zamonaviy tadqiqotlar kontekstida kinoyaning badiiy uslubga aylanishi, ba'zan "o'tkir forma"da sarkazm darajasigacha yetishi, shuningdek, kinoyaning "etik va estetik idealni ifodalovchi muhim badiiy vosita"⁷ bo'lib borishi qayd etiladi. Bu qarashlar hozirgi o'zbek nasrida (M.M. Do'st, E. A'zam, Sh. Bo'tayev, Luqmon Bo'rixon va boshqalar atrofidagi tahlillarda) kinoyaning oddiy kulgi emas, balki muallif pozitsiyasi va qadriyatlar bahosini ko'rsatuvchi poetik mexanizmga aylanganini anglatadi. Umuman, bu borada izlanishlarimiz davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Касаткина Т.А. Характерология Достоевского. – М.: Наследие, 1996. – 276 с.
2. Тюпа В.И. Художественность литературного произведения. Вопросы типологии. – Красноярск: Изд-во Красноярского университета, 1987. – С. 142-143.
3. Чудаков А.П. Слово – вещь – мир: От Пушкина до Толстого: очерки поэтики русских классиков. – М.: Современный писатель, 1992.
4. Қуронон Д. Мамажонон З. Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Тошкент академнашр. 2013. – Б. 130.

⁵kh-davron.uz

⁶ (kh-davron.uz)

⁷